

“UCHINCHI DUNYO”DAN “GLOBAL JANUB” SARI: TUSHUNCHA, MOHIYAT VA KONSEPTUAL TALQINLAR.

Muhayyo Xabibullayeva

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Muxtor Nazirov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10535923>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyoning rivojlanayotgan mamlakatlarini alohida ko‘rsatuvchi “Global Janub” konsepsiyasining evolyutsiyasi va uning mazmun-mohiyatiga doir yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada asosiy e‘tibor “Global Janub” atamasining kelib chiqishi, uning rivojlanishi va tanqidga uchrashiga qaratilgan. Janub mamlakatlarining geografik joylashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy holati bilan bog‘liq masalalarda ham maqolada atroflicha mushohada yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Global Janub, Global Shimol, Janub mamlakatlari, “Uchinchi dunyo”, G‘arb bo‘lmagan dunyo, Kambag‘al dunyo, Brandt chizig‘i, kam rivojlangan dunyo.

FROM THE THIRD WORLD TO THE GLOBAL SOUTH: CONCEPTS, ESSENCES AND CONCEPTUAL INTERPRETATIONS.

Abstract. This article considers the evolution of the concept of the “Global South” and approaches to its content, which specifically refers to the developing countries of the world. The article focuses on the origins of the Global South concept, its development and criticism. The article also discusses in detail issues related to the geographical location and socio-economic situation of the southern countries.

Keywords: Global South, Global North, Countries of the South, Third World, Non-Western World, Poor World, Brandt Line, Underdeveloped World.

ОТ ТРЕТЬЕГО МИРА ДО ГЛОБАЛЬНОГО ЮГА: ПОНЯТИЯ, СУЩНОСТИ И КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ.

Аннотация. В данной статье рассматривается эволюция понятия «Глобальный Юг» и подходы к его содержанию, в которых конкретно указываются развивающиеся страны мира. Основное внимание в статье уделяется зарождению концепции «Глобальный Юг», ее развитию и критике. В статье также подробно рассмотрены вопросы, связанные с географическим положением и социально-экономическим положением южных стран.

Ключевые слова: Глобальный Юг, Глобальный Север, Страны Юга, Третий мир, Незападный мир, Бедный мир, Линия Брандта, Слаборазвитый мир.

KIRISH

Global rivojlanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarning ko‘pchiligi geografik jihatdan shimolda, rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati esa janubda joylashganligi sabab dunyoni ikki qismga bo‘lingan va bundan “Shimol” va “Janub” atamalari kelib chiqqan. Vaqt o‘tishi bilan turli tanqidlar natijasida “Shimoliy-Janub” tushunchasini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati yuzaga keldi, natijada “Global Janub” (*Global South*)

[1] atamasi paydo bo‘lib, bugungi kunda ilmiy jamoatchilikda ommalashdi. Ammo dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarini muayyan chegaralash uchun bungacha boshqa atamalar ham mavjud edi. Masalan: “Kam rivojlangan dunyo”, “Ko‘pchilik dunyo”, “G‘arb bo‘lmagan dunyo”, “Kambag‘al dunyo”, “Qashshoq dunyo”, “Janub”, “Uchinchi dunyo”, “Rivojlanmagan dunyo”.

Yuqoridagi atamalar orasida “Global Janub” konsepsiyasi ilmiy adabiyotlarda eng ko‘p uchraydi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 1996-yilda ilk bor qo‘llanilgan mazkur atamadan foydalanish darajasi 2000-yillarga kelib 10 barobarga ko‘paydi [2]. 2007-yildan “*Global South*” nomli ilmiy jurnal muntazam nashr etila boshlandi. Shunga o‘xshash yana bir jurnal – “*Journal of Global South Studies*” (“Global Janubiy tadqiqotlar jurnali”), 2015-yilda sobiq “*Journal of Third World Studies*” (“Uchinchi Dunyo tadqiqotlari jurnali”) [3] o‘rnida nashr qilina boshladi. Dunyo ravojlanishining zamonaviy tendensiyalari bu fenomen bilan bog‘liqligi ilmiy jamoatchilikning “Global Janub” konsepsiyasiga qiziqishi ortganida namoyon bo‘ldi.

Shunday ekan, “Global Janub” va “Uchinchi dunyo” atamalarning kelib chiqishi, uning evolyutsiyasi, nima uchun jahon taraqqiyotini o‘rganayotgan xalqaro ekspertlarning zamonaviy leksikonidan mustahkam o‘rin olganligi haqida tushuncha hosil qilish lozim bo‘ladi.

MUHOKAMA

“Uchinchi dunyo” atamasining kelib chiqishi

Uchinchi dunyo mavjud degan fikrning muallifi sifatida ko‘pincha ingliz antropologi va sotsiologi P. Vorsli tilga olinadi. Bu bejizga emas. Vorsli shu nomdagi ko‘plab kitoblar muallifidir va ularning birinchisi 1960-yilda nashr qilingan. Biroq aslida “Uchinchi dunyo” (le tiers monde) tushunchasini avvalroq 1952-yilda fransuz demografi A. Sovi ilmiy asarlariga kiritgan [4]. Biroq olim “Uchinchi dunyo” atamasidan foydalanganda “birinchi” va “ikkinchi” dunyolarning borligini nazarda tutmagan. Aksincha, u kambag‘al va mustamlaka mamlakatlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni ta‘riflagan va ularni uchinchi bir dunyo sifatida tavsiflagan.

1970-yillarda “Uchinchi dunyo” deb “Birinchi dunyo” (kapitalistik) va “Ikkinchi dunyo” (sotsialistik/kommunistik) mamlakatlardan farqli bo‘lgan va ularning hech biriga mos kelmaydigan davlatlar ittifoqi nazarda tutilgan. Biroq, tez orada iqtisodiyoti zaif bo‘lgan qashshoq mamlakatlar “Uchinchi dunyo” sifatida tasniflana boshlandi.

1980-yilga kelib aksariyat mualliflar bu atamani o‘z asarlarida iqtisodiy tengsizlik masalalarini ifodalashda foydalana boshlashdi. Masalan, amerikalik olim M.Todaro tomonidan “*Uchinchi dunyoda iqtisodiy rivojlanish*” (*Economic Development in the Third World*, 1985) [5], ingliz olimi P.Bauer tomonidan “*Tenglik, uchinchi dunyo va iqtisodiy illyuziya*” (*Equality, the Third World, and Economics Delusion*, 1981) [6], yana bir ingliz olimi P. Harrison tomonidan yozilgan “*Ertaga uchinchi dunyo: qashshoqlikka qarshi urushdagi frontdan reportaj*” (*The Third World tomorrow: a report from the battlefield in the war against poverty*, 1983) [7] asarlarda “Uchinchi dunyo” mamlakatlari sifatida doim rivojlanishdan ortda qoladigan, iqtisodiyoti yomon ahvolda bo‘lgan mamlakatlar nazarda tutila boshlandi va bu atama salbiy ma‘nodagi tushunchaga aylanib qoldi.

Shunday qilib, 1980-yillarning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi o‘zgarishlar tufayli “Uchinchi dunyo” tushunchasi kam qo‘llanila boshladi. Bunga bir qancha sabablar mavjud edi.

Birinchidan, bu “birinchi” va “ikkinchi” dunyolar o‘rtasidagi katta qarama-qarshilikning zaiflashuvi va ilgari hal qilib bo‘lmaydiganday tuyulgan iqtisodiy ziddiyatlarni bosqichma-bosqich bartaraf etilishidir.

Ikkinchidan, “Ikkinchi dunyo”ning markazi sanalgan sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi iqtisodiy muvozanatning buzilishiga va uning tarkibidan ajralib chiqqan ayrim mamlakatlarning “Uchinchi dunyo” tarkibiga kirishiga olib keldi. Mualliflar qayd etishicha, bozor iqtisodiyotining yuksalishi oqibatida ko‘plab mamlakatlar (masalan, Xitoyda 1978-yildan, Vetnam va Laosda 1986-yildan, qisman SSSRda 1987-yildan) sust rivojlangan davlatlar qatoridan chiqib boshladi. Bundan tashqari, globallashtiruv jarayonlari natijasida o‘zaro mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy qutblashish emirildi, keyinchilik “Uchinchi dunyo” atamasi o‘zining asl mazmunini muayyan ma’noda yo‘qotdi.

“Uchinchi dunyo” deb atalgan Osiyoning ko‘plab mamlakatlaridagi jadal iqtisodiy o‘shish sur‘atlari endi ularni kambag‘al va zaif deb tasniflashga yo‘l bermas edi, aksincha ularning ayrimlari yangi “Osiyo yo‘lbarlari” deb atala boshlandi. Gonkong, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvan singari “yangi sanoatlashgan mamlakatlar” qatorini tez orada Indoneziya, Malayziya va Tailand to‘ldirdi. Undan keyin Vetnam va Xitoy iqtisodiy o‘zgarish ko‘lami va tezligi bo‘yicha eng ajoyib namuna bo‘la oldi. Bu mamlakatlarda turmush darajasi oshib borgani sari jamoatchilik ko‘z ongida “Uchinchi dunyo” deb tasniflanish kamsituvchi ma’noga ega so‘zga aylanib qoldi.

1980-90-yillar oxirida “Kambag‘al dunyo”, “Kam rivojlangan dunyo”, “Sust rivojlangan dunyo” [8] kabi muqobil atamalar paydo bo‘la boshladi. Biroq, ulardan foydalanish juda ko‘p munozaralarga sabab bo‘ldi, chunki bu tushunchalar endilikda tezlik bilan o‘zgarayotgan mazkur mamlakatlarning keyingi rivojlanish holatini yetarlicha aks ettira olmadi. Bundan tashqari, bu atamalar yetarlicha kontseptual asosga ega emas edi.

Shu o‘rinda “kambag‘al dunyo” – qashshoq, chunki u globallashtiruv va kapitalistik ekspansiya jarayonlari orqali hukmronlik qiladigan “boylar” (yoki “birinchi dunyo”) tufayli kam rivojlangan degan ma’noni anglatadi. Bu atama boshqalarga qaram bo‘lgan davlatlarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘z navbatida, “kam rivojlangan dunyo” va “kambag‘al dunyo” tushunchalari iqtisodiy yaxshi rivojlanmagan davlatlarga ishora qiladi. Bundan tashqari, ushbu tushunchalar bilan davlatlar tavsiflanayotganda, ularning tarixi va dunyo siyosatidagi o‘rni hisobga olinmaydi, balki faqat ularning iqtisodiyoti nazarda tutiladi. Shu tariqa qilib, 20-asrning oxiriga kelib “Uchinchi dunyo” atamasi o‘z ahamiyatini yo‘qotib boshladi.

“Global janub” tushunchasining kuchli va zaif tomonlari

1980-yillarning o‘rtalaridan boshlangan dunyo iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar “Global Janub” tushunchasining kelib chiqishiga sabab bo‘ldi. Aniqrog‘i, 1983-yilda Germaniya sobiq kansleri Villi Brandt o‘z maqolalaridan birida “Umumiy inqiroz. Shimol-Janub: tiklanish uchun hamkorlik” jumlasini ishlatgan. U yana bir maqolasida aholi jon boshiga YIM bo‘yicha mamlakatlarni boy va kambag‘allarga ajratuvchi “Shimoliy-Janubiy chiziq” [9] (yoki “Brandt chiziq‘i”) tushunchasini qo‘llagan. Bu keyinchalik rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan “Janub” atamasi qo‘llanishiga ma’lum darajada turtki bergan.

Bu yerda ko‘proq davlatlarning geografik joylashuviga, ya’ni kambag‘al mamlakatlarning aksariyati shimoliy kenglikning 30° janubida joylashganligiga e’tibor qaratiladi. Bunday yondashuv davlatlar rivojlanishining iqtisodiy va tarixiy xususiyatlariga emas, balki ularning

geografik joylashuviga asoslanadi. Ammo Avstraliya va Yangi Zelandiya kabi boy va rivojlangan davlatlar bu ro'yxatdan mustasnodir. Garchi "Janub" atamasi oldingi kontseptsiyalarga qaraganda ancha muvaffaqiyatli bo'lib tuyulsa-da, u har doim ham dunyoning tobora murakkablashib borayotgan manzarasida differentsiatsiya jarayonlarini tushuntirib bera olmadi.

1990-yillarda olimlar metodologik boshi berk ko'chaga tushib qolishdi. Bir tomondan, ular vaqti-vaqti bilan eskirib qolgan "Uchinchi dunyo", "Kambag'al dunyo" yoki shunga o'xshash atamalardan foydalanishni davom ettirdilar. Biroq, tubdan o'zgarayotgan dunyo tartibotida bu tushunchalar yangi geoiqtisodiy o'zgarishlarni ta'riflab bera olmadi. Masalan, iqtisodi tez rivojlangan kichik Singapur yoki aholisiga ko'ra ulkan Xitoyning jahondagi iqtisodiy va siyosiy "vazni" jadal ortib borayotgani bu atamalarga endi mos kelmas edi.

Shuning uchun "kambag'al va rivojlanayotgan" davlatlar tabiyatini yanada to'g'ri belgilash uchun bir nechta muqobil konsepsiyalar ilgari surila boshladi. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan, janubda dunyo aholisining qariyb 80 foizi istiqomat qilishi, BMTga a'zo davlatlarning ko'pchiligi janubda joylashganligi asos qilib olib, "Dunyo aksariyati" tushunchasi qo'llana boshladi. Lekin bu atama aniq chegaraga ega emasligi bois tanqidga uchradi. Uning o'rnida "G'arb bo'lmagan dunyo" atamasi yuzaga keldi, u hali ham ba'zi o'rinlarda ishlatilib turiladi. Bu atama Yevropa va Shimoliy Amerikani (G'arbni) qolgan davlatlardan ajratib turar edi.

Ayni damda bu konsepsiya aniq geomadaniy nuqtai nazarga ega va ko'proq G'arbnin boshqa mamlakat va mintaqalarga nisbatan o'ziga xosligini ta'kidlashga qaratilgan edi. Bu atama hali ham mavjud va ingliz tilida "The West and the Rest" ("G'arb va qolganlar") deb ataladi. Bu ibora G'arb mamlakatlarining boshqa davlatlardan ustunroq ekanligini bildirish uchun ham ishlatiladi[10]. Bunday yondashuvni britaniyalik tarixchi N.Fergyson va amerikalik siyosatshunos F.Zakaria asarlarida ko'p uchratish mumkin.

NATIJALAR

"Global Janub" fenomenining aktuallashuvi

2000-yillarda oddiygina "Janub" atamasidan "Global Janub" (*Global South*) konsepsiyasiga o'tishi tufayli atama yanada mukammallashdi va bu metodologik qiyinchiliklarni yengib o'tishga imkon berdi. Ushbu konsepsiya davlatlarning faqatgina geografik joylashuvigagina qarab emas, balki iqtisodiy tengsizligiga qarab bo'linishiga ishora qiladi. Bu bilan yana "Shimol" va "Janub" davlatlari tez integratsiya jarayonlarining bir qismiga aylanganligi va global miqyosda birlashgani ta'kidlanadi. Bundan tashqari, ushbu atama dunyo ijtimoiy-iqtisodiy holatining bir qolipli emas, balki doimiy o'zgarishlarga uchrab turishini ham anglatadi.

Amerikalik siyosatshunos T. Fridman 2005-yilda yozgan "Global Janub" nomli kitobida ta'kidlashicha, "Dunyoni ikki "Global Janub" va "Global Shimol" qismlariga ajratishi o'rinli, chunki bu konsepsiyalar siyosiy va iqtisodiy tizimlardagi tafovutlar bilan emas, balki global kapitalizm doirasidagi "yutqazganlar" va "g'oliblar" o'rtasidagi tafovutlar bilan tavsiflangan Sovuq urushdan keyingi dunyoga yangilangan istiqbolni ifodalaydi" [11].

Biroq, hozirda rivojlangan davlatlarni "Global Shimol" deb atash va rivojlanish darajasidan pastroq bo'lgan mamlakatlarni belgilash uchun "Global Janub" atamasidan foydalanish ham ko'plab e'tirozlarni keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, bunday tasnif muqarrar ravishda istisno va cheklovlarga olib keladi. Dunyo davlatlari shunchalik xilma-xilki, ularni ikki atama bilan bo'lish juda tor doiradagi ta'riflashdir.

Ikkinchidan, bunday bo‘linishda dunyoning uyg‘un manzarasi buziladi. Hattoki, dunyo mamlakatlarining eng bazaviy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini qo‘llasa ham, ularni bo‘lganda ancha murakkab holat paydo bo‘ladi. Masalan, dunyoning iqtisodiyoti eng yirik o‘nta davlatdan uchtasi (nominal qiymat bo‘yicha) “Global Janub”da joylashgan (Xitoy, Hindiston, Braziliya), eksport va importi yuqori 10 ta davlatlardan biri Indoneziya ham shu hududda. Bundan tashqari, bu ro‘yxatda yana Portugaliya “rivojlangan” (“Shimol”) davlat, Saudiya Arabistoni esa “rivojlanayotgan” (“Janub”) davlat hisoblanadi. Demak, “Janub” mamlakatlari orasida rivojlanish indeksi ancha yuqori bo‘lgan mamlakatlar ham mavjud.

O‘z navbatida, turmush darajasi, ta‘lim va umr ko‘rish davomiyligini hisobga oluvchi, integral ko‘rsatkich bo‘lmish Inson rivojlanish indeksi bo‘yicha mamlakatlar reytingini oladigan bo‘lsak, “Janub”dagi qator davlatlar Singapur (5-o‘rin), Janubiy Koreya (18-o‘rin) va Isroil (19-o‘rin) kabi taraqqiy etgan 20 ta davlat ham “Janub” mamlakatlariga kiritilgan. Shu bilan birga, “Shimol”da iqtisodiy pozitsiyasi bir qator “Janub” vakillaridan anchayin past bo‘lgan davlatlar ham mavjud. Ba’zi Yevropa mamlakatlari rivojlanish ko‘rsatkichi bo‘yicha 50-o‘rindan pastroq, jumladan Bolgariya (56-o‘rin), Albaniya (75-o‘rin) va Makedoniya (82-o‘rin) va boshqa ko‘plab mamlakatlar bunga misol bo‘lishi mumkin.

Dunyoning rivojlangan (“Shimol”) va rivojlanmagan/rivojlanayotgan (“Janub”) qismlarga bo‘luvchi chiziq nafaqat davlatlar balki, viloyatlar va shaharlar ichidan ham o‘tishi mumkin. Bu bo‘linish dunyoning deyarli barcha davlatlari, ham juda boy, ham juda kambag‘al mamlakatlar uchun xosdir. Chunki bugungi kunda ayrim davlatlarning chekka hududlari qoloq va rivojlanmagan bo‘lishi tabiiy. Masalan, Belgiyaning Valloniya va Flandriya qismlari, Italiyaning shimoli va janubi hamda sharqiy qirg‘oq va sharqiy hududlari, Xitoyning ichki va g‘arbiy hududlari o‘rtasidagi rivojlanish borasidagi farqlar. Bunday ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish rivojlanish darajasi eng past bo‘lgan davlatlarda ham mavjud va ularning shaharlari, turli hududlari va ayniqsa megapolislari sezilarli darajada tez rivojlanmoqda.

XULOSA

“Janub”ning geografik xaritasiga nazar solsak, u yerdagi ko‘plab sobiq kolonial hududlar va jahon siyosiy, iqtisodiy hayotining periferiyasida joylashgan, tabiiy resurslar eksportiga tayanib qolgan, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga ega mamlakatlar guruhi ajralib turadi. Ularning aksariyatini umumiy yoki o‘xshash jihatlar va tahdidlar birlashtirib turadi va bu ulkan geosiyosiy makondir. O‘z paytida Yaponiya, Janubiy Koreya singari davlatlar butun imkoniyatlarini ishga solib, iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra “Uchinchi dunyo”dan rivojlangan “Birinchi dunyo” safiga o‘ta olgani rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ko‘plab stereotiplarni barbod etdi hamda “umid chirog‘i” vazifasini bajardi, deyish mumkin.

“Global Janub” konsepsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etishga hamda istiqbolda yuqori rivojlangan davlatlar qatoriga kirishga intilayotgan mamlakatlar va xalqaro institutlarni qamrab oladi. Shu jihatdan buni globallashtirishning shakllanayotgan yangi fenomeni deyish mumkin.

Bugungi kunda “Global Janub” chekka hududlar bo‘lgani holda kapital va resurslarning global oqimlari jamlanadigan markazlarga aylanib bormoqda. Geosiyosiy maqsadlarda “Janub” va “Shimol” raqobatini rag‘batlantirish hamda qutblashtirishga urinishlar ayrim kuch markazlari tomonidan amalga oshirilmog‘da, biroq bu jarayonlar iqtisodiy asoslarga ega emas.

Umuman olganda, “Global Janub” atamasi rivojlangan va rivojlanayotgan dunyoni farqlashda foydalanisa-da, Shimol va Janub o‘rtasidagi bo‘linish chizig‘i allaqachon makro darajadan mikro darajaga tushib bormoqda, endilikda ko‘p jihatdan shtatlar, viloyatlar va shaharlar ichidan o‘tadi. Bu esa global taraqqiyot manzarasini ancha murakkab va serqirra bo‘lishiga olib keladi.

REFERENCES

1. Therien J.-P. Beyond the North-South divide: The two tales of world poverty // *Third World Quarterly*. 1999. Vol. 20. Issue 4. P. 723–742.
2. Hempel F. et al. The Use of the Concept „Global South — in *Social Science & Humanities*. https://www.academia.edu/7917466/The_Use_of_the_Concept_Global_South_in_Social_Science_and_Humanities
3. The Global South. Indiana University Press. <http://www.iupress.indiana.edu/pages.php?pID=79&CDpath=4>
4. *Journal of Global South Studies*. Project MUSE. <https://muse.jhu.edu/journal/715>
5. Todaro M. *Economic Development in the Third World*. Longman, 1985. 648 p.
6. Bauer P. *Equality the Third World & Economics Delusion*. Harvard University Press, 1981. 312 p
7. *The Third World tomorrow: a report from the battlefield in the war against poverty*. Penguin, 1983. 414 p.
8. Rigg J. *The Global South // Concepts of the Global South — Voices from around the world*. Global South Studies Center, University of Cologne, Germany. <http://gssc.uni-koeln.de/node/452>
9. The Brandt Report: A Summary <https://www.sharing.org/informationcentre/reports/brandt-report-summary>
10. Ferguson N. *Civilization: The West and the Rest*. Penguin, 2011. 432 p
11. Friedman T. *The World is Flat*. Farrar, Straus and Giroux, 2005. 496 p.
12. Nazirov, M., & Abdusalomova, D. (2023). Theoretical Approaches to the Balance of the World Political System. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, 2(5), 583-586.
13. Nazirov, M. (2021). Russia, China and the United States in Central Asia: Clash of Interests. *The Scientific Heritage*, (80-5), 38-42.
14. Karimov, F., & El-Murad, J. (2019). Does country-of-origin matter in the era of globalisation? Evidence from cross sectional data in Uzbekistan. *International Journal of Retail & Distribution Management*, 47(3), 262-277.
15. Khaydarali Yunusov. (2023). Balanced Policy of the EU in Central Asia. *International Journal of Law And Criminology*, 3(06), 38–47. <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume03Issue06-07>
16. Nasirovich, V. B. (2023). Structure and Specific Characteristics of Economic Culture in Historical Development. *Eurasian Scientific Herald*, 20, 140-144.